
“Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” gi Qonuni mazmun-mohiyati

Prezident tomonidan imzolangan Qonun (O'RQ-915-son, 27.02.2024 y.) bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Qonun bilan **davlat hisobidan yuridik yordam olish** huquqiga ega bo'lgan shaxslarga bunday yordam ko'rsatish uchun **jinoyat, fuqarolik ishlari va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha** hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda **advokatning ishtirok etishini** ta'minlash tartibini belgilashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra:

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqayotgan **vakolatli mansabdor shaxs** yoki **sud** ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning **iltimosiga ko'ra**, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan **advokatning ishda ishtirok etishini ta'minlash choralari ko'rish shart.**

Bunda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan **e'tiboran unga ishga kirishish uchun kamida 4 soat vaqt berilishi kerak.**

Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, sud da'vogarning yoki javobgarining iltimosiga ko'ra, **davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta'minlash choralari ko'rish shart.**

Shuhrat Mirzakirov

Jinoyat ishlari bo'yicha O'zbekiston tuman sudining raisi

2024-04-02 16:50:43